

**Akramova Dildora
Nizomiy nomli TDPU
Maktabgacha ta`lim pedagogikasi va
psixologiyasi kafedra o`qituvchisi**

**MAKTABGACHA TA`LIM TASHKIOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARINI
IJTIMOIY MUXITGA MOSLASHUVIDA PSIXOLOGIK YONDASHUV**

Annotatsiya: Ijtimoiy psixologiya inson va guruhlar faoliyatiga psixologik tasnif berish bilan birga insonlarni ijtimoiy guruhlarga qo'shishlari faktini keltirib chiquvchi inson faoliyati va yurish-turish qonuniyatlarini ham ham o'rganadi.

Kalit so`zlar: Ijtimoilashuv, moslashuv, muloqat, xissiy rivojlanish, munosabat.

Аннотация: Социальная психология, наряду с психологической классификацией деятельности людей и групп, изучает также закономерности человеческой деятельности и поведения, приводящие к тому, что люди включаются в социальные группы.

Ключевые слова: Социализация, адаптация, общение, эмоциональное развитие, отношение.

Abstract: Social psychology, along with the psychological classification of the activities of people and groups, also studies the patterns of human activity and behavior that lead to people being included in social groups.

Key words: Socialization, adaptation, communication, emotional development, attitude.

Yosh psixologiyasi inson ruhiyati dinamikasi va yosh xususiyatlarini, Shuningdek shaxs rivojlanishining yoshga bog'liq omillarini ham o'rganadi. Ijtimoiy psixologiya ijtimoiylashuv va viktimologiya (jinoyatshunoslik) muammolarini o'rganiShda ijtimoiy tarbiya metodikasi va texnologiyasini iShlab chiqiShda ijtimoiy va yosh psixologiyasi ma'lumotlaridan foydalanadi.

Ijtimoiy psixologiya ilmiy tadqiqotlarning fanlararo bog'langan sohasi hisoblanadi. Uning asosini pedagogika, pedagogika tarixi, pedagogik usullar va vositalar tashkil etadi. Shu bilan birga ijtimoiylashuv muammolarini sotsiologiya fani tomonidan ham o'rganilganligi sababli ijtimoiy psixologiya ba'zi sotsiologik nazariya, usul va vositalardan ham foydalanadi. Shu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy psixologiya o'zining nazariya, uslub, vosita va texnologiyalarini ham iShlab chiqmoqda.

Yuqorida bayon etilgan ma'lumotlar asosida Yu.N.Galaguzovaning ta'rifiiga juda yaqin turuvchi ijtimoiy psixologiyaning eng aniq ta'rifi quyidagicha:

Shuningdek, ijtimoiy psixologiyaga bola ijtimoiylashuvi qonuniyatlarini o'rganadigan, mutaxassislarini ijtimoiy tarbiya va ta'lim usullari hamda texnologiyalar bilan ta'minlaydigan fan sifatida ta'rif bersak ham bo'ladi.

Ijtimoiy psixologiya fan sohasi sifatida bir qator vazifalarga ega. A.V.Mudrik bu vazifalarni 3 guruhga ajratib ko'rsatadi: nazariy, amaliy va insonparvarlikka oid.

Nazariy vazifa ijtimoiy pedagogika oid bilimlarni to‘plab zamonaviy jamiyatda o‘rganayotgan jarayon va hodisalarining to‘liq tasvirini nazariy jihatdan yoritib beriShda namoyon bo‘ladi.

Amaliy vazifalarga ijtimoiy psixologiyaning ijtimoiy lashuviga tashkiliy-pedagogik va psixologik yo‘naliShlardagi ta’sirini samarali takomillashtirish iShlarini aniqlaSh bilan bog‘liq. Amaliy vazifalarga quyidagilar kiradi:

1)bola (o‘smir) ongida yaxshilik, adolat, yaqinlariga, ijodga, o‘zaro tushunishga muhabbatni tarbiyalash;

2)inqirozli holatlardan mustaqil chiqib ketiSh maqsadini qo‘yish, chiqish yo‘llarini aniqlaSh, atrofdagilar bilan muloqot qilishni o‘rganiSh, hayot mazmuni va maqsadini aniqlaSh;

3)atrof-muhit, inson, uning jismoniy va ma’naviy xususiyatlari,

jamiyatdagi huquq va majburiyatlarini biliShga intiliShni rivojlantirish;

4)g‘urur, mustaqillik, o‘ziga ishonch hissini rivojlantirish;

5)bola (o‘smir)da oila, maktab, tengdoShlari davrasida, ishda muomala madaniyatini oshirish. Bunda ijtimoiy pedagog o‘z tarbiyanuvchilarining yosh xususiyatlarini bilishi zarur. Shuningdek, u bolaga ijtimoiy munosabatlarning axloq va huquq normalariga suyangan holda insonlar, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi nizolarni yechishga o‘rgatiShi kerak. Bu vazifalar yaxshilik qiliSh, o‘z hayotini tashkil etiShga o‘rgatiSh, o‘ziga xoslik va iqtidorni tashkil qilishga rivojlantiriShda o‘z aksini topadi.

Insonparvarlik vazifasi Shaxsning rivojlanishida o‘z-o‘zini takomillashtirish uchun Sharoitlar yaratib beruvchi, ijtimoiy pedagogik jarayonlarni mukammallaShiruvchi, qo‘yilgan maqsad va vazifalarni ishlab chiqishda insoniylikka asoslaniShda o‘z ifodasini topadi. Zamonaviy ijtimoiy psixologiyaning insonparvarligi bola va pedagog o‘rtasidagi munosabatlarni qattiqqo‘llik emas, o‘zaro tushunishga asoslanishida ko‘rinadi. Ijtimoiy pedagogning vazifasi bolaning jismoniy, axloqiy va ma’naviy kuchlarini shakllantiriShda, unda jamiyat qabul qilgan xislatlarni tarbiyalashga yordam beriShdan iborat.

Yu.V.Vasilkova ijtimoiy psixologiyaning asosiy tarbiyaviy, ijtimoiy-huquqiy va ijtimoiy reabilitatsion vazifalarini ajratadi.

Tarbiyaviy vazifa bolaning jamiyatga qo‘shilishi yoki uning ijtimoiy lashuv jarayoni, o‘quv va tarbiya jarayoniga ko‘nikiShida ekanligini ko‘zda tutadi.

Ijtimoiy - huquqiy vazifaning asosini davlatning bolalarga g‘amxo‘rligi, ularning huquqiy himoyasini tashkillashtirish, muammolarini hal qiliShda maslahatlar beruvchi tashkilotlar iShini takomillashtirish tashkil etadi.

Ijtimoiy reabilitatsion vazifa – nogiron, jismoniy va ruhiy nuqsonlarga ega bolalar bilan tarbiyaviy va o‘quv iShlarini olib boriShdir. Bunda asosiy vazifalarni ijtimoiy pedagog bajaradi.

Shaxsiy tayyorgarlik - bu pedagogik fikrlesh (gnostik, ya’ni biliSh qobiliyati – ilmiy ma’lumotlardan to‘g’ri foydalanishni bilish, ilmiy bilimlarni amaliy faoliyatda qo’llay biliSh, pedagogik vazifalarni ixtisosiga yaraSha yechish); pedagogik maqsad belgilaniShi (tashkilotchilik

xususiyatlari – o'qiSh va mashq qilish uchun qulay Sharoit yaratiSh qobiliyati, mashg'ulotlarning kerakli Shakllarini tanlab oliSh, vaqtini to'g'ri taqsimlash, o'qish jarayonini kerakli asbob-uskunalar bilan ta'minlaSh; o'z mehnatini tashkil qila biliSh, turli ommaviy tadbirlarni rejalaShtiriSh va o'tkazish (turli bayram tadbirlari, adabiyot kechalari

Pedagogik yo'nalganlik (kommunikativ qobiliyatlar: mazkur ta'lim oluvchilar guruhi uchun qulay bo'lган shaklda ma'lumotlar taqdim etish qobiliyati, vaziyatga qarab ma'lumotlar beriShning vosita va usullarini tuzatiSh, iShontiriSh qobiliyati, kasbiy muloqotni "Pedagog-psixolog", "Pedagog-ota-onalar", "Pedagog-menejer", "pedagog-bola" darajalarida savodli olib boriSh, bolalar jamoasida sog'lom psixologik mikroiqlim yaratish va b.)

Kasbiy tayyorgarlik: pedagogik takt (intellektual mehnatda loyihalaShtiriSh qobiliyati: hal qiliShning oddiy standart va metodlaridan voz kechiSh, yangi o'ziga xos usullar qidiriSh; bor narsadan uzoqni ko'riSh; muammolarni asosiy bir-biriga bog'lanish mazmunini qamrab oliSh; yechimning bir necha turli yo'llarini aniq tasavvur qilib, fikran eng samarali bo'lganini tanlaSh; barcha narsa hal bo'lган joyda muammoni yuzaga keliShi va uni his qiliSh; g'oyalarni ko'pligi; o'z faoliyatini, o'qitish jarayonini, bolalarni individual rivojlaniShini, innovatsion o'qitiSh jarayonini, dasturlarni loyihalaShtiriSh).

Refleksiv tayyorgarlik: pedagogik refleksiya (refleksiv qobiliyatga uch turdag'i sezgirlik kiradi:

- ✓ **ob'ektni his qilish** pedagogni o'ziga xos maxsus sezgirligi – bolalar real haqiqatga qanday qarashda, ularning qiziqiSh va ehtiyojlari qay darajada namoyon bo'ladi, "ular pedagogik tizim talablariga mos keladimi";
- ✓ **me'yor va taktni his qilish** – bola shaxsi va faoliyatida turli pedagogik ta'sirlar natijasida kelib chiqadigan o'zgarishlar me'yoriga nisbatan maxsus sezgirlik, qanday o'zgariShlar ro'y beradi, ular ijobjiy yoki salbiymi, qaysi belgilarni yordamida ular haqida xulosa qiliSh mumkin;
- ✓ **aloqadorlik hissi** – pedagogni o'z faoliyatining kamchiliklariga nisbatan bo'lган sezgirligi, pedagogic jarayonga tanqidiy va javobgarlik hissiyotlari).

Yuqorida qayd etilganlar shuni ko'rsatadiki, Shaxsiy yondaShuvni amalga oShiriShda faqat bola shaxsini yoki faqat pedagog Shaxsini rivojlaniShi emas, balki ta'lim jarayonining bir butun sub'ektini rivojlaniShi ko'zda tutiladi. YAxlit sub'ektni rivojlaniSh ko'rsatkichlari ma'no (mazmun) tizimi bo'lib hisoblanadi: bola ongidagi shaxsiy fikrlar tizimi va pedagog shaxsining shaxsiy, hayotiy mazmun va mazmunlar tuziliShi tizimi.

Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish – bu eng avvalo, maktabgacha tashkilotaga to'g'ri keladigan tartib yaratiShdir. Bundan kelib chiqqan holda, maktabgacha tarbiya tashkilotasiga bolalar tarbiya va ta'limiga davlat qo'ygan talablarga javob beradigan tashkilot deb qarash kerak.

Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabat uning sub'ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari, qadriyatlar almashuvlidir. Bunaqa munosabat ijtimoiy jihatdan tabaqlashgan, alohida ko'riniShga ega. Chunki o'zaro munosabatning aniq ishtirokchilari muayyan etnik, ijtimoiy va ijtimoiy psixologik guruhlar vakili bo'la turib, o'z munosabatlarida u yoki bu darajada ular mansub guruhlarga tegiShli ijtimoiy yuriSh-turiShni amalga oshirishadi.

Umuman olganda, o'zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning,

birgalikdagi faoliyati, uning mazmuni, xarakteri, tarbiyaviy samaradorligi, unda kimlar iShirok etiShi va ular o'zlarini qay darajada shaxs deb hisoblaShiga bog'liq.

O‘zaro munosabat jarayonida amalgaoshirilayotgan ijtimoiy tarbiya

insonning ijobjiy ijtimoiy, ma’naviy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtiriShda qulay sharoitlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1, Akramova, D. (2022). ACTIVITIES OF FUTURE TEACHERS-PSYCHOLOGISTS IN THE SYSTEM OF PRESCHOOL EDUCATION. *Science and Innovation*, 1(8), 322-326.

2. Акрамова, Д. Э. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГИБКОСТИ У СТУДЕНТОВ КАК ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОСТИ. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 13(8), 19-23.

3, Akramova, D. E., & qizi Azimova, X. D. (2023, January). MAKTABGACHA TA’LIM YO ‘NALISHI TALABALARIDA IJODIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 382-385).

4, Akramova, D. E., & qizi Suvonqulova, M. D. (2023, January). RIVOJLANTIRUVCHI MARKAZLARDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASH VA MILLIY QADRIYATLAR NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIGI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 393-396).

5, Akramova, D. E., & qizi Ne’matova, S. S. (2023, January). BO ‘LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDAGI OMILLAR. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 390-392).

6, Akramova, D. E., & qizi Axmedova, N. B. (2023, January). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI RAHBARINING BOSHQARUV MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 386-389).

7, Акрамова, Д. Э., & Бобомуродова, О. Б. (2023, January). ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ ВА УСУЛЛАРИ ҲАҚИДА ТУШУНЧА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 352-354).

8, Акрамова, Д. Э., & қизи Тожихонова, Л. У. (2023, January). ТАРБИЯ–ИЖТИМОЙИ-ПЕДАГОГИК ҲОДИСА ВА ЖАРАЁН СИФАТИДА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 375-377).

9, Акрамова, Д. Э., & қизи Бозорбоева, Д. А. (2023, January). ЖАМОА–ТАРБИЯ ОБЪЕКТИ ВА СУБЪЕКТИ СИФАТИДА. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 355-357).

10, Акрамова, Д. Э., & Йўлдошева, Н. (2023, January). ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИ МАЖМУИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 362-364).

11, Акрамова, Д. Э., & қизи Раҳимберганова, М. М. (2023, January). ПЕДАГОГИК ЖАРАЁНДА ТАРБИЯНИНГ МАЗМУНИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 372-374).